DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.11069583

# UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA ADABIYOT FANINING O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

**Dexkanova Lobar Burxonjonovna**
Namangan viloyati Chust tumani 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

***ANNOTATSIYA***

*Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fanlarini o‘qitish texnologiyalarini tahlil etiladi. Ma’lumki, ushbu yondashuv yordamida har bir pedagog o‘zining kasbga ooid mahoratini rivojlantirish bilan birga buning natijasini a’lo darajada oladi. Shu bilan birga pedagoglarni o‘z kasbiga moslashtirish jihatlari o‘rganilsa, bu bilan birgalikda pedagogik shart-sharoitlar aniqlanib muommolarni bartaraf etilsa, mana shunday tizimli yondashuv strategiyasi amaliyotga tadbiq etilsa, ko‘zlagan maqsadga erishiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *adabiyot fani, akmeologik yondashuv, kognetiv kompotensiya, kuzatuv va yondashuv, pedagogik tajriba.*

# ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ

***АННОТАЦИЯ***

*В данной статье анализируются технологии преподавания литературных предметов в общеобразовательных школах. Известно, что с помощью такого подхода каждый педагог получает отличные результаты в развитии своего профессионального мастерства. В то же время, если изучены*

*аспекты адаптации педагогов к своей профессии, вместе с этим определены педагогические условия и устранены проблемы, если такая стратегия системного подхода будет реализована на практике, желаемая цель будет достигнута.*

***Ключевые слова**: литература ведение, акмеологический подход, познавательная компетентность, наблюдение и подход, педагогический опыт.*

## TEACHING TECHNOLOGIES OF LITERATURE ON THE BASIS OF ACMEOLOGICAL APPROACH IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

***ABSTRACT***

*This article analyzes the technologies of teaching literary subjects in general secondary schools. It is known that with the help of this approach, every pedagogue gets excellent results while developing his professional skills. At the same time, if the aspects of adapting pedagogues to their profession are studied, together with this, pedagogical conditions are determined and problems are eliminated, if such a systematic approach strategy is put into practice, the desired goal will be achieved.*

***Key words**: literary science, acmeological approach, cognitive competence, observation and approach, pedagogical experience.*

## KIRISH

Biz bilamizki, har qanday yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiya ma’lum bir tizim bo‘yicha tashkil qilinadi. Masalan, har bir fanning o‘z mutaxassisi ya’ni har bir o‘qituvchi o‘zi o‘quvchilari uchun boshqaruvchi, pedagog rahbar, kuzatuvchi, yetakchi va yordamchi sifatida ishlaydi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan turli islohotlar jamiyatimizning taraqqiyotini rivojlantirish bilan birga ta’lim sohasida biz pedagoglarga o‘z fikriga ega, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni maqsad qilib qo‘yadi. Adabiyot fanining o ‘qitishning birdan bir yo‘li badiiy adabiyotshunoslik bilan fanning uyg‘unlashuvidir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bizga ma’lumki, adabiyot alohida fan sifatida adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy jarayon muammolari bilan shug‘ullanadi. Xozirgacha umumiy o‘rta ta’lim maktablarining dars faoliyatiga yangi pedagogik texnalogiyalarni qo‘llash masalalarni ko‘plab olimlar o‘rgangan va tadbiq etgan. Sanab o‘tish joizki, quyida nomlari keltirilgan olimlarimiz fanni joriy etish, ularning mohiyati va shu kabi masalalarni K.Zaripov, M.O.Ochilov, N. Saidahmedov, O‘.Q.Tolipov, M.Klarinlar tadqiqotlarida fo‘rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda, B.To‘qliyev, R.Niyozmetova, K.Uzmonova va boshqalar adabiyot fanining o‘qitishda foydalanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavzusida darslik va qo‘llanmalar yaratishgan.

## NATIJALAR

Ma’lumki, har bir yurtning rivojlanishida ta’liming o‘rni beqiyosdir. Bu esa biz pedagoglardan ko‘proq e’tibor talab qiladi. Xozirda kadrlar tayyorlash va pedagog kadrlarni malakasini oshirish bu jarayon oldida turgan eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu, o‘z navbatida, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv jarayonini tashkil etishda yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Umum ta’lim maktablarida o‘quv jarayonini yaxshilash va uni rivojlantirishda asosiy omillardan biri pedagogik mahoratdir. Agarda pedagog o‘z dars jarayonini vaqtlarga taqsimlab, qanday ishlashni bilsa, va o‘zini doimo akmealogik yondashuv asosida rivojlantirib, o‘z vaqtida soxasiga tegishli ma’lumotlarni o‘rganib, taxlil qilib borsa, dars jarayoni juda yaxshi tashkillanadi. Shu bilan birga har bir pedagoglar kasbiy rivojlanishida pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi o‘rni beqiyos. Bu esa pedagoglarni yuqori natijalarga erishish uchun asosdir. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilari masofaviy ta’lim usullaridan oqilona foydalanib, dars jarayonlarini prezentatsiya ko‘rinishida tashkil etsa, o‘quvchilarda ham ko‘rish va ham eshitish orqali dars mustahkamlanadi.

## MUHOKAMA

Ma’lumki, xozirda rivojlanib borayotgan bir davrda yashayapmiz. Bunda shunchalar imkoniyatlar ko‘pki, bundan oqilona foydalanilsa pedagog kasbiy

rivojlanib boraveradi. O‘quvchilarni adabiyot faniga qiziqtirishda, multimedialardan foydalansa, dars jarayoni qiziqarli, baxsga, munozaraga boy bo‘ladi. Ayrim o‘quvchilar quloqlari bilan eshitib, ma’lumotlarni yaxshi saqlab qolsa, ayrimlari korish orqali bunga erishadi. Xozirda badiiy adabiyot nomoyondalari xaqida ma’lumot yetarlicha, lekin unga sayqal berib prezentasiya va kichik roliklar orqali dars tashkillansa, pedagog oldiga qo‘ygan maqsadiga erishib, sinf o‘quvchilarini to‘laligicha darsga qamrab oladi. Pedagog o‘z tafakkurini bosqichma-bosqich boyitib, zamonaviy ta’lim talablarini hisobga olgan holda adabiyot fanini chuqur o‘rganib, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars tashkillamog‘i kerak. Dars jarayoning vaqtini to‘g‘ri taqsimlaganda, audiokitoblardan ham foydalanishi kerak. Tan olib aytishimiz kerakki, xozirda chet tillarni o‘rganish juda ommaga chiqdi. Achinarlisi, ayrimlar o‘z o‘zbek tillarini ham unutib bormoqda. Biz pedagoglar o‘quvchilarni adabiyot va ona tili darslariga qiziqtirishimizga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida, biz pedagoglarga katta mas’uliyatni yuklaydi. Ushbu sohada pedagoglar dars jarayonini talab darajasida tashkillab, o‘z dars jarayonini ommaviy axborot vositalarida e’lon qilsa, boshqa fan o‘qituvchilariga masterclass bo‘lar edi. Umumta’lim maktablarida fanning o‘qitishda uning maqsadiga, zamonaviy va axborot texnologiyalaridan foydalanishga, uslubiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga va joriy etishga e’tiborini qaratsa, o‘quvchilarda kommunikativ savodxonlik darajasini oshirib, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, yuqoridagi dars jarayonlar o‘quvchilarning o‘z fikrlarini to‘g‘ri, ravon, oqilona ifoda etish g‘oyasini tarbiyalashga xizmat qiladi. Fan o‘qituvchisi har bir o‘quvchida matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqib, muammoli dars tashkil qilish orqali o‘quvchilarni o‘ylash, izlanish va fikrlashga undaydi. Yana nutq qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘quvchilarning nutq qobilyatlari rivojlansa, u qaysi sohani tanlashdan qat’iy nazar o‘z tanlagan kasbida yetuk mutaxassis bo‘la oladi. Agarda o‘quvchilarda axborot savodxonligini saqlab va uni nutqida faol qo‘llay olsa, dars jarayoni muzokara tarzida o‘tadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, umum ta'lim maktab o'quvchilarida adabiyot fanini o'qitishda yangi zamonaviy pedagogik texnologiya va zamonaviy multimedialardan foydalanilsa, pedagog dars jarayonida o'zini oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi va pedagog o'z akmesini yarata oladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Maxmudova, Dilnoza. (2023). Cognitive skills development in mathematics learning.. 8-10.
2. Maxmudova, Dilnoza. (2023). Problems of research of technology of development of cognitive competence in future teachers on the basis of acmelological approach.
3. Maxmudova, Dilnoza & Jasurbek, Egamov. (2022). ACMELOLOGICAL APPROACH TO PREPARATION OF FUTURE TEACHERS.
4. Maxmudova, Dilnoza. (2022). Use of the Acmelological Approach to Teaching Mathematics.
5. Maxmudova, Dilnoza. (2022). International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology Use of the Acmelological Approach to Teaching Mathematics.
6. Maxmudova, Dilnoza. (2021). Акмеологик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда когнитив компетентликни ривожлантириш технологиясини тадқиқ этиш масалалари. 2. 139-144.